


Surxondaryo viloyati hamda Rossiyaning Tomsk va Oltoy hududlari o'rtasida savdo-iqtisodiy, mehnat migratsiyasi, tibbiyot, fan va ta'lif sohalarida yangi hamkorlik kelishuvlariga erishildi



Avval [xabar](#) berganimizdek, Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov boshchiligidagi delegatsiya a'zolari joriy yilning 28 noyabr-1 dekabr kunlari Rossiya Federatsiyasida bo'lib, Tatariston Respublikasi, Tomsk viloyati hamda Oltoy o'lkasi hukumati rahbariyati bilan qator uchrashuvlarni o'tkazdi.






Tomsk viloyatiga tashrif davomida viloyatimiz rahbari hokimi To'ra Bobolov gubernator Vladimir Mazur bilan uchrashdi.

Viloyatlar rahbarlari muloqot chog'ida ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro ko'mak asosida fan, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va mehnat migratsiyasi sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yish ustuvor ahamiyatga ega ekanini qayd etishdi.






Shuningdek, tashrif doirasida Surxondaryo delegatsiyasining Tomsk viloyatidagi yirik ishbilarmon va tadbirkorlar bilan uchrashuvlari ham tashkil etilib, Surxon vohasida ishlab chiqarilayotgan hamda qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilayotgan mahsulotlar eksportini amalga oshirish bo'yicha qator kelishuvlarga erishildi.







Bundan tashqari, Surxondaryo viloyati hokimi To'ra Bobolov Tomsk viloyatida mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz, mehnat muhajirlari hamda bu yerda tahsil olayotgan talabalar bilan uchrashdi. Uchrashuvda ularning taklif va muammolari o'rGANildi. Aniqlangan muammolar joyida bartaraf etildi.

Shundan so'ng Surxondaryo viloyati delegatsiyasi Oltoy o'lkasi hukumati, Savdosanoat palatasi, Fan va ta'lrim, Qishloq xo'jaligi, Iqtisodiyot va boshqa soha vazirliklari mutasaddilari bilan uchrashuvlar o'tkazib, kelgusida hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli hujjatlarni imzoladi.